

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar
Adliya bo'limi Davlat xizmatlari
markazi tomonidan 2024 yil ___
14.05 da 2961786 -son reestr
raqami bilan


«QAYTA RO'YXATGA OLINGAN»

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024- yil 4-mart kunidagi PQ- 114-son
qarori hamda Prezidenti huzuridagi
statistika agentligining 2024- yil
30- apreldagi 74-sonli buyrug'iga
asosan

«TASDIQLANGAN»

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASINING
USTAVI**



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida

NIZOM

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining (keyingi o'rinlarda - Boshqarma) maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Boshqarma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qarori bilan tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o'rinlarda - statistika agentligi) yagona tizimiga kiruvchi hududiy statistika organi hisoblanadi va o'z faoliyatida Statistika agentligiga bo'ysunadi.

Boshqarma, fuman (shahar) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildirlar va bevosita Statistika agentligiga bo'ysunadi;

tuman (shahar) statistika bo'limlari Boshqarmaning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi.

3. Boshqarma mahalliy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg'or statistika ma'lumotlari tizimining faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan rasmiy statistika sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida"gi Nizom, Statistika agentligining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Boshqarma o'z faoliyatini boshqa mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorlikda, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Boshqarma o'z faoliyatini har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturiga asosan Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Boshqarma va uning fuman (shahar) statistika bo'limlari qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Boshqarma yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o'z nomi yozilgan blank va muhrga, mustaqil balansga, bankdagi hisob raqamlariga ega bo'ladi.

9. Boshqarma quyidagi manzilda joylashgan: Qashqadaryo shahar, Mirobod fumani, Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy.

2-bob. Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va rasmiy statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash; xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish; ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish; davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini hudud bo'yicha statistika ma'lumotlari bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish;

sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning hududning rivojlanishini to'liq tavsiflovchi va iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining rivojlanishidagi, shuningdek, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq ochib beruvchi ko'rsatkichlarning keng ro'yxatidan erkin foydalanishni ta'minlash;

ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, luklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas'uliyatlarini oshirish; ro'natga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

11. Boshqarma o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi

doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:

statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning talablarini o'rganishni hisobga olgan holda istiqbolli maqsadlar va yo'nalishlarni, rasmiy statistikaning rivojlantirish uchun kadrlar bilan va moliyaviy ta'minlashni belgilaydi;

Statistika dasfuriga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

statistika organlari tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur choralarini ko'radi;

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlaydi;

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSOM) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va Statistika agentligiga kiritadi;

statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan statistika hisoboti shakllari to'g'risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar beradi;

statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini ta'minlaydi;

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Statistika dasturining bajarilishini ta'minlaydi;

hudud bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan Statistika agentligi tomonidan belgilangan davlat statistika kuzatuvlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

hududlarni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishining borishini o'z vaqtida va ishonchli statistik hisobini ta'minlaydi; davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, uy xo'jaliklarini statistik kuzatishni, ro'yxatdan o'tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat'iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta'minlaydi;

hudud bo'yicha eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi; statistika, hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini,

statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

respondentlarga elektron hujjat shaklidagi statistika kuzatuvlari shakllarini tuzish va taqdim etish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan bepul foydalanish imkonini beradi;

respondentlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo'llanishini ta'minlaydi;

Boshqarma veb_saytni shakllantiradi, yuritadi va yangilab boradi, foydalanuvchilarga undan va Statistika agentligining axborot resurslaridan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, statistika organlari faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini komplektlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida Boshqarma faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning keng ommasi uchun hudud bo'yicha statistika ma'lumotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligini ta'minlaydi;

hududlarning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqa hududiy boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

mahalliy ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tavsiflovchi kompleks tahliliy ma'ruzalar, press-revizlar va maqolalar talyorlaydi, tarqatilayotgan statistik ma'lumotlarga tahliliy va ma'lumotnoma materiallar majburiy tartibda ilova qilinishini ta'minlaydi, ushbu materiallarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) berib borilishini tashkil etadi;

milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari hamda hududlarning rivojlanishini, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni

modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, xom ashyo resurlarini chuqur qayta ishlash, hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq aks ettiradigan statistika ma'lumotlari tezkor va sifatli tayyorlashda ishtirok etadi;

ochiq statistika ma'lumotlari Boshqarma rasmiy veb-saytida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi;

Boshqarmaning ma'lumotlari asosida mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) tahliliy lavhalar, diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish yo'li bilan alohida statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralari ko'radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika ma'lumotlari masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnoma asosida, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi;

v) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

rasmiy statistika ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganadi va ularni rasmiy statistika sohasiga joriy etish bo'yicha o'z takliflarini beradi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo'li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo'lgan hisobot ma'lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligi bosqichma-bosqich oshirilishini hududiy darajada muvofiqlashtiradi;

ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun rasmiy statistika ma'lumotlarining maksimal darajada ochiqligi va shaffofligini, shu jumladan, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib borish ko'rsatkichlari xalqaro statistik to'plamlarda chop etilishini ta'minlash maqsadida xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirishni ta'minlaydi;

rasmiy statistika sohasiga xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or tizimlar va tavsiyalarni joriy etish uchun xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari va boshqa chet ellik donorlarning mablag'lari hamda grantlari (texnik ko'magi)ni jalb etish ishlarida ishtirok etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, statistika ma'lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash maqsadida foydalanuvchilar o'rtasida taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlaridan qoniqish darajasini baholash bo'yicha so'rovlar o'tkazadi;

rasmiy statistika ma'lumotlarining manbalari, ulami tayyorlash usullari, ishonchliligi, shaffofligi, oshkoraligi va sifati to'g'risida foydalanuvchilarni metama'lumotlar yordamida xabardor qilib boradi.

d) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ya statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish sohasida:

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrida yuridik shaxslarni to'liq hisobga olishni va ular faoliyati holatidagi o'zgarishlarni monitoring qilishni ta'minlaydi;

yagona tasniflash tizimi asosida yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiyalashni, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri samarali faoliyat ko'rsatishini hamda yangilab borilishini ta'minlaydi;

o'zaro mos axborot tizimlari va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik tasniflagichlardan foydalanishni ta'minlaydi;

internet resurslariga joylashtirish yo'li bilan statistik tasniflagichlar va ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida foydalanuvchilarni xabardor qiladi;

e) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta'minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini statistika organlari faoliyatiga joriy etishda ishtirok etadi;

axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot almashishning himoyalangan elektron ko'rinishiga bosqichma-bosqich o'tish, xavflarga qarshi tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun normativ-huquqiy va tashkiliy-texnik bazani takomillashtirish bo'yicha Statistika agentligi tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat statistikasi axborot-hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarini ko'radi;

statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida davlat siyosatini amalga oshirilishini va "Elektron hukumat" tizimini joriy etilishini ta'minlaydi;

j) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish ya statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida statistika organlari ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

statistika tizimida kadrlarining malakasi oshirilishini va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta'minlaydi;

kadrlar malakasini oshirish jarayonlariga videokonferensaloqa tizimi va raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda masofaviy o'qitish tizimini samarali tashkil etadi;

boshqaruv xodimlarini ishga qabul qilishda lavozimlarga nomzodlarni ochiq tanlov asosida qabul qilishni amalga oshiradi;

statistika organlari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning samarali mehnat qilishlari, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhofaza qilish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish choralari ko'radi;

boshqarma xodimlari uchun lavozim va malaka darajalariga ko'tarilishda ularning mehnat faoliyati, irodaviy va axloqiy sifatleri, iqtidori va ko'nikmalarini xolisona baholashga asoslangan teng imkoniyatlar yaratadi;

boshqarma xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'radi;

rasmiy statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini ta'minlash maqsadida respondentlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

statistika faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni talyorlash jarayonlarida tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishini va qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yuborilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarni, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralari amalga oshiradi.

z) ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta'minlash sohasida:

ro'yxatga olish hujjatlari shakllarini, ro'yxatga oluvchi xodimlar guvohnomasi shaklini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

ro'yxatga olish dasturlarini va ro'yxatga olish varaqalari shakllarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ularning hududlarga yetkazilishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni hududiy darajada muvofiqlashtiradi;

ro'yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni tanlab olish va o'qitish tadibini belgilaydi va o'qitishni tashkil etadi;

ro'yxatga olish natijalari milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun e'lon qilinishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olish varaqlari va boshqa ro'yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi), yo'q qilinishi tartibini belgilaydi va ularning bajarilishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni amalga oshiradi;

Boshqarma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

3 bob. Boshqarmaning huquqlari va javobgarligi

12. Boshqarma o'z vakolati doirasida hamda o'ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda - ularning vakolatxonalarini va filiallaridan) statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkashni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek, yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo'yicha olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek rasmiy statistika axborotlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-fushuntirish ishlarini olib borish;

rasmiy statistika ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish, ular bo'yicha tushuntirishlar berish;

olinayotgan statistika ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini tahlildan o'tkazish;

statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va statistika agentligi bilan kelishilgan holda hudud bo'yicha yig'ma statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralari ko'rish; davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy jarimalardan tushumlar hisobiga Statistika agentligining maxsus jamg'armasini shakllantirishda ishtirok etish va undan belgilangan tartibda foydalanish;

Statistika agentligi topshirig'iga ko'ra statistika kuzatuvlarini olib borish uchun shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish; o'z vakolati doirasida kengash va ekspert organlari (kengashlar, komissiyalar, guruhlar) fuzish;

Statistika agentligi bilan kelishilgan holda statistika masalalari bo'yicha xalqaro seminarlar va kengashlar ishida qatnashish;

shartnoma asosida statistik, tahliliy, axborot xizmatlari va statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rsatish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarning mehnatiga haq to'lash, rag'batlantirish, mukofotlash va rag'batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish;

Statistika agentligi topshirig'iga ko'ra alohida vazifalarni bajarish uchun funksional bo'linmalar tashkil qilish;

Boshqarma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Boshqarma, zarurat bo'lganda, boshqa davlat organlari va idoralar bilan birga qo'shma qaror, buyruqlar va boshqa hujjatlar qabul qilishi mumkin.

14. Boshqarma va uning mansabdor shaxslari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Boshqarmaning mansabdor shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Boshqarma rahbarlari va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistika ma'lumotlari, statistik axborotlar va ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, berganlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika

ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yo'xud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

4-bob. Boshqarma faoliyatini tashil etish

16. Boshqarmaga Statistika agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

17. Statistika agentligi direktori qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Boshqarma tarkibiy bo'linmalari hamda tuman (shahar) statistika bo'limlarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatish ishlarini amalga oshiradi, boshqarmalarning nizomlarini tasdiqlaydi.

18. Boshqarma boshlig'ining Statistika agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinbosari bo'ladi.

19. Boshqarma boshlig'i:

Boshqarmaning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda Boshqarmani ifodalaydi yo'xud Boshqarma nomidan boshqarma xodimlariga ishonchnoma va (yoki) vakolatlar beradi;

Statistika agentligi bilan kelishilgan holda, xodimlarning belgilangan soni doirasida hudud statistika organlari shtat jadvalini tasdiqlaydi;

Boshqarmaga ajratilgan moliyaviy va moddiy-texnika resurslarini amalga oshirilgan statistika ishlari hajmlariga muvofiq taqsimlaydi;

Boshqarmada huquqiy madaniyatni oshirishga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktika ishlarini olib boradi va boshqa choralarni ko'radi;

Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari va tuman (shahar) statistika bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

tuman (shahar) statistika bo'limlari boshliqlari Statistika agentligi bilan kelishilgan holda Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Statistika agentligi direktori boshqarma boshlig'i o'rinbosarlarining vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

Boshqarma boshlig'i Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari mansabdor shaxslarining vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

o'z vakolatlari doirasida hudud statistika organlarining barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

rahbar va xodimlarni rag'batlantirish va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarni qo'llash masalalarini hal etadi;

xodimlarni mehnatini rag'batlantirish tizimini shakllantiradi, yuqori malaka uchun ustamalar belgilaydi;

kadrlar zahirasini shakllantirish, shuningdek xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda tashkil qiladi;

Boshqarmaga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonunchilik hujjatlari doirasida zarur choralar ko'radi;

Boshqarmaning kengash yig'ilishlarida raislik qiladi.

Boshqarma boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

20. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari:

mutasaddilik qilinadigan bo'linmalarga bevosita rahbarlik qiladilar;

Boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar;

Boshqarma boshlig'i tomonidan o'zlariga yuklangan boshqa funksiyalarni amalga oshiradilar.

21. Lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish:

Boshqarma boshlig'i - Statistika agentligi direktori tomonidan;

tumanlar (shaharlar) statistika bo'limlari boshliqlari - Statistika agentligi bilan kelishilgan holda Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Boshqarmaning barcha bo'linma rahbarlari va xodimlari Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

22. Boshqarmada Boshqarma boshlig'i (kengash raisi) uning o'rinbosarlari (lavozimga ko'ra), shuningdek Boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi boshqarma tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda kengash tashkil etiladi.

Kengash 5 kishilik tarkibda tashkil qilinadi. Kengashning shaxsiy tarkibi Statistika agentligi direktori bilan kelishilgan holda Boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

23. Kengash quyidagilarni amalga oshiradi: statistika faoliyati samaradorligini yanada oshirish, statistika organlarining funksiyalari va vazifalarini takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda, statistika organlari faoliyatining qonunchilik hujjatlarida belgilangan asosiy yo'nalishlarini tanqidiy ko'rib chiqish;

statistika sohasidagi siyosatni amalga oshirishda Boshqarma faoliyatida boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;

statistika ishlari bajarilishi natijadorligini har chorakda tanqidiy ko'rib chiqish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalaridan fushgan murojaatlarni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqish asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bajarilishi yuzasidan samarali nazoratni ta'minlovchi ijro intizomi darajasini oshirish, rasmiy statistikasi sohasidagi eng muhim muammolarni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Boshqarma tarkibiy bo'linmalari va tuman (shahar) statistika bo'limlari rahbarlarining hisobotlarini eshitishni tizimli asosda tashkil qilish, ularga yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirishni ta'minlash.

Kengash Boshqarma vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

24. Kengash uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

25. Kengash qarorlari bayonlar bilan rasmiylashtiriladi va Boshqarma boshlig'ining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Kengash faoliyatining tartibi uning kengash tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

Kengash yig'ilishlari, qoida tariqasida, har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

5-bob. Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti

26. Boshqarmaning mol-mulkini asosiy vositalar va aylanma mablag'lar, shuningdek qiymati uning mustaqil balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

27. Boshqarmani moliyalashtirish va uning moddiy-texnika ta'minoti Statistika dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Statistika dasturida belgilangan amalga oshirilgan statistika ishlari uchun haq to'lash, Boshqarma tomonidan Statistika agentligiga har oyda taqdim etiladigan bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobiga Statistika agentligi tomonidan ta'minlanadi.

statistika dasturiga kiritilmagan va ularni ishlab chiqishga qo'shimcha xarajatlar talab qilinadigan qo'shimcha statistika ishlariga haq to'lash buyurtmachilar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Boshqarma tomonidan olingan foyda, amortizatsiya ajratmalari, shuningdek boshqa tushumlar uning ixtiyorida qoladi hamda ulardan hudud statistika organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli

bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish uchun belgilangan tartibda foydalaniladi.

28. Boshqarma Statistika dasturini bajarish doirasida ajratilgan mablag'laming va o'z ishlarining boshqa natijalarining tezkor va buxgalteriya hisobini "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun va Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq amalga oshiradi, statistika hisobotini yuritadi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

29. Boshqarmani qayta tashkil etish, qo'shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.